



ORIENTALIST CHARACTERISTICS OF THE DIGITAL MEDIA COLONIALISM PHENOMENON

Dostonbek Ruziboev

Foundation Doctoral Student

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: roziboyevd831@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Orientalism, Edward Said, West and East dichotomy, Eastern fantasy, digital colonialism, mass consciousness, stereotype, mythization.

Received: 16.01.24

Accepted: 18.01.25

Published: 20.01.25

Abstract: This article examines the methodological features of Western Oriental studies in light of modern paradigms and trends, analyzing them within the broad context of media and Orientalism. Additionally, the article investigates how the Orientalist style of thinking is reflected in media, particularly in cinema, art, and mass media, exploring these characteristics through specific examples.

RAQAMLI MEDIA KOLONIALIZIM FENOMENINING ORIENTALISTIK XUSUSIYATLARI

Dostonbek Ro'ziboyev

tayanch doktorant

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: roziboyevd831@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar. Orientalizm, Edvard Said, G'arb va Sharq dixotomiyasi, Sharq fantaziyasi, raqamli kolonializm, ommaviy ong, streotip, mifizatsiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada G'arb sharqshunosligi orientalizmning metodologik xususiyatlari zamonaviy davr paradigmalariga va tendensiyalari bilan ko'rib chiqilib media va orientalizm keng kontekstida tahlil qilingan. Shuningdek maqolada orientalizm tafakkur uslubining mediada, xususan, kino, san'at, OAVlarda qaysi xususiyatlariga ko'ra aks etishi tadqiq etilib aniq misollar bilan ko'rib chiqilgan.

ОРИЕНТАЛИСТСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ФЕНОМЕНА ЦИФРОВОГО МЕДИАКОЛОНИАЛИЗМА

Достонбек Рузибоев

Докторант

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

E-mail: roziboyevd831@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ориентализм, Эдвард Саид, дихотомия Запада и Востока, восточная фантазия, digital colonialism, массовое сознание, стереотип, мифизация.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методологические особенности западной ориенталистики в контексте парадигм и тенденций современного периода, а также проводится анализ медиа и ориентализма в широком контексте. Кроме того, в статье исследуются и рассматриваются на конкретных примерах особенности отражения стиля мышления ориентализма в средствах массовой информации, в частности, в кино, искусстве и других видах СМИ.

KIRISH

Sharq fenomenining tushuncha o'laroq shakllanishiga e'tibor qaratilganda o'tmishdan tortib bugungi kungacha sharqshunoslik sohasidagi tadqiqotlar asosidagi asarlar, tadqiqot qo'lyozmalari, rasmlar, kino filimlar, media, ijtimoiy tarmoq vositalari asosida rekonstruksiya qilinib ishlab chiqilganini tarixiy xronologik yondashuv bilan kuzatish mumkin. Edvard Saidning "Orientalizm" konsepsiyasi G'arbning Sharq xalqlarini qanday tasvirlashi va ularga qanday munosabatda bo'lishini tahlil qiladi. Orientalizm konsepsiyasining shakllanishi bevosita interpretatsiya muammosi bilan bog'liqlikda shakllangan hisoblanadi. Bu tushuncha, asosan, Edvard Saidning 1978 yilda chop etilgan "Orientalizm" kitobida atroflicha o'rganilgan. Saidning ta'kidlashicha, G'arb (yoki "Oksident") Sharqni ("Orient") ekzotik, orqada qolgan, arxai, xavfli yoki tushunarsiz hudud sifatida ko'rsatib, bu tushunchalarni joriy qilish bilan o'z dominantligini mustahkamlashni maqsad qilgan. Bu konsepsiyaga ko'ra, Sharq xalqlari va madaniyatlari haqidagi tasvirlar ko'pincha stereotiplar asosida shakllangan bo'lib, haqiqiy madaniy xilma-xillikni aks ettirmaydi. Zamonaviy davrda ham "odamlarning dunyoqarashini shakllantiradigan, tomoshabin fikrini o'zgartiradigan, fikrlash va qaror qabul qilish mexanizmlariga ta'sir ko'rsatadigan media-madaniy mahsulotlar orientalizm tomonidan yaratilgan "biz" va "boshqalar" tushunchasini yaratuvchi "Sharq fantaziyasi" muammosini yuzaga keltirdi" [1, 43-53-b]. Sharq jamiyatlarining o'zi haqidagi ma'lumotlarga madaniy gegemonlik natijasida G'arb nuqtai nazaridan yondashishi o'z-o'zini orientallashtirishni (self-orientalizing) vujudga keltirdi va o'z jamiyatidan yiroqlashgan

sharqliklar tomonidan yaratilgan bilimlar G'arbning orientalistik bilimlar bazasi va paradigmalari asosida qayta shakllandi. O'z-o'zini orientallashtirish bu sharqliklarni o'zlari haqidagi bilimlar va xulosalarni G'arbning orientalistik (self-orientalizing) paradigmalari asosida namoyon bo'ladigan tendensiya hisoblandi. Bu nafaqat fikirda balki sanat va mediada ham aniq namoyon bo'ladi. Xususan bazi Sharqliklar tomonidan yaratilgan kino va sanat mahsullaridagi aks etgan obrazlarda G'arb orientalistik tafakkurining madaniy ta'siri aniq namoyon bo'lganini kuzatish mumkin.

G'arb falsafiy ananalari va imperializim tendensiyasi bilan shakllangan g'arb ananaviy orientalizmi (sharqshunosligi) bir qancha sohalarda hali ham o'z ta'sirini saqlab qolgan bo'lib Sharq va G'arb dixotomiyasida jiddiy muammolarning kelib chiqishi va rivojlanishida sabab bo'lmoqda. Xususan zamonaviy davrga kelib keng omma ongining shakllantiruvchi vositasi bo'lgan mediada orientalizm hozir ham dolzarbdir va u Sharq mamlakatlari va ularning madaniyatlarini noto'g'ri tasvirlashda davom etmoqda. Quyidagi misollarni media orqali orientalistik tasvirlarni shakllantirish usullari sifatida ko'rsatish mumkin:

1. Mediyada Sharq xalqlari ko'pincha o'zgacha, ekzotik, yoki aggressiv tarzda ko'rsatiladi. Masalan, musulmon yoki arab qahramonlari ko'pincha film va teleko'rsatuvlarda terrorizm yoki ekstremizm bilan bog'lanadi, bu esa global auditoriyalarda xato tasavvurlar shakllanishiga olib keladi.

2. G'arb mediasida Sharq madaniyatini go'yoki qiziqarli qilish maqsadida soddalashtirib, ekzotiklashtirish tendensiyasi sharqning o'z obyektiv borlig'ining yo'qolishiga va stereotiplarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Bu bilan haqiqiy madaniyat o'rniga G'arb tomoshabiniga asrlar davomida siyosiy omillar asosida shakllangan mifologik tasvirlar taqdim qilinadi.

3. Media ko'pincha Sharqdagi barcha xalqlarni bir xil deb tasvirlaydi, ularning farqlarini e'tiborsiz qoldiradi. Masalan, turli arab mamlakatlarining madaniyat, til va urf-odatlarini farqlamasdan, barchasini bir xil "arab dunyosi" degan tasvirga kiritadi. Bu esa madaniy xilma-xillikni kamaytiradi va noto'g'ri umumlashmalar vujudga keltiradi.

4. Mediadaning orientalizm metodologiyasi ustun bo'lgan mahsulotlarida Sharq "orqada qolgan" va "rivojlanish uchun G'arbg muhtoj" geografiya sifatida ko'rsatiladi. Bu esa G'arbning madaniy va iqtisodiy g'egemonligini yana bir bor tasdiqlashga xizmat qiladi.

Mediyadagi Orientalistik tasvirlarga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Golivud filmlarida arablar, hindlar yoki boshqa Sharq xalqlari ko'pincha ekzotik, kulgili yoki tahdidli obrazlarda tasvirlanadi. Masalan, "Aladdin" kabi filmlarda arab jamiyatlari soddalashtirilgan va ekzotik tarzda ko'rsatilgan.

- Ko'p hollarda, G'arb mediasida Sharq mamlakatlari haqidagi yangiliklarda asosiy diqqat ularning ichki muammolari — urush, zo'ravonlik va terrorizm kabi mavzularga qaratiladi. Bu esa

“Sharq har doim notinch hudud” degan stereotipni mustahkamlab sharqlik qiyofasida zo‘ravonlik, tartibsizlik, bosh boshdoqlik stereotipini kuchaytiradi.

- Sharq ko‘pincha G‘arbning qarama-qarshisi sifatida ko‘rsatiladi. G‘arb rivojlangan, demokratiya va erkinlikka asoslangan madaniyat sifatida, Sharq esa an‘anaviy, orqada qolgan, ba‘zan esa repressiv madaniyat sifatida tasvirlanadi.

Mediyada orientalizm G‘arbning Sharqqa nisbatan ustunligini ta‘kidlashva etnosentrizm orqali namoyon bo‘ladi. Oryentalizm tafakkur uslubining tadqiq etgan olimlar bu stereotiplar va ularning ta‘sirini ochib berib, madaniy tenglik va tushunishni rivojlantirishga hissa qo‘shmoqda. Shu bilan birga, oryentalistik tasvirlarni tanqidiy o‘rganish va ulardan voz kechish Sharq va G‘arb madaniyatlari o‘rtasidagi chuqur tushunishni mustahkamlashga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Media va orientalizm keng o‘rganilgan soha bo‘lib avvalo orientalizmning birinchilardan media kontekstida tahlil qilinishi “Edvard Said tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib keyinchalik bu tadqiqotlar post-kolonial tadqiqotlar tendensiyasi bilan yangi bosqichda rivojlandi” [2, 113-160]. Mediada orientalistik xususiyatlar turk tadqiqotchilari tomonidan keng tadqiq qilingan bo‘lib yangi nazariy yondashuvlarni taklif qilganligi nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa bu mavzuning O‘zbekistonda yetarli darajada tadqiq qilinmaganligi mazkur mavzuni nazariy va konseptual asoslar bilan tadqiq qilish zaruratini asoslaydi.

Media keng soha bo‘lib undagi eng kuchli ta‘sir vositasi bu albatta kino hisoblandi. Kino sa‘natida orientalizm tafakkur uslubining nozik unsurlarini tahlil qilish va ochib berish kuchli metodologik yondashuvlarni talab qiladi. Media va uning falsafiy muammolari haqida tadqiqot olib borgan Hilol Erjonning “Gollivud kinosida madaniy interprettatsiya va orientalizm” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi asosida yozilgan “Gollivud kinosida orientalizm” shunday tadqiqotlar sirasiga kiradi. Bu tadqiqot 4 bobdan tashkil topib kitobda Orientalizmning kino bilan birga amalga oshishi tushuntiriladi. “Birinchii bob “Orientalizmning tarixiy evolyutsiyasi” deb nomlanib bu bobda tarixiy sharq qiyofasining antik davrdan tortib to XX asrgacha bo‘lgan shakillanish jarayoni haqidagi qarashlar mantiqiy izchillik bilan tushuntiriladi. Ikkinchi bob “Sayohatchilar tomonidan yaratilgan Sharq obrazi” deb nomlanib, bu bobda G‘arbdagi Sharq ijtimoiy konstruksiyasi shakillanishida Jean Baptiste Tavernier, Jean Chardin, Jean de Thevenot va Volney kabilarning o‘rni keng tahlil qilinadi. Uchunchi bobda “Orientalizm Gollivud kinosida” deb nomlanib “Indiana Jones”, “Yo‘qolgan kema bosqinchilari”, “Mumy” va “Mumyoning tirilishi” nomli kinolardagi orientalistik unsurlarning tahlilini amalga oshiradi” [3].

Guliz Uluchning “Media va Orientalizm” deb nomlangan asari ham yuqorida keltirilgan asarlar sirasiga kirib, asar kirish qismi, ikki asosiy bob, xulosa va ma‘lumotnoma qisimlaridan tashkil topgan. “Kitobda sharqshunoslikda ommaviy axborot vositalarining roliga to‘xtalib o‘tgan

muallif ommaviy axborot vositalari vakillari orqali marginallashtirishning qanday yo'llar bilan sodir bo'lishini ta'kidlab o'tgan" [4]. "Marginal, Marginalashuv va Media" deb nomlangan birinchi bobda Sharq marginalizatsiyaning tarixiy va falsafiy genezisi muhokama qilinadi. "Orientalizm va Media" deb nomlangan ikkinchi bobda Orientalizmning genezisi tahlili keltiriladi" [4].

Muhokama. Mediadan siyosiy vosita sifatida foydalanishning muhimligi shubhasizdir. Ommaviy axborot vositalarining siyosiy jihati XX asr xarakterini belgilab bergan raqamli mustamlakachilik "*digital colonialism*" fenomenini kun tartibiga olib chiqdi. Raqamli mustamlakachilik XVIII-XIX asrlardagi mustamlakachilik faoliyatini davom ettirayotganligi ilgari suriladi. Mos ravishda "*Orientalism-media-history*" Orientalizm-Media-Tarix uchligi XXI asrga kelib bir-birini taqozo etadigan yangi bir bosqichga kirdi. Boshqacha aytganda, orientalizm muhokamasi o'tmishdagi ildizlaridan ajralmagan holda qayta ko'rib chiqilishi va tushuntirilishi kerak, lekin faqat texnologik taraqqiyot yaratgan va xalqlarning tasavvurlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan media o'lchov bilan. Sharq va G'arb ommaviy axborot vositalari tomonidan qo'llaniladigan til, diskurs va usullar haqida o'zaro aloqadorlikda va shartli alohida ravishda fikr yuritish lozim.

G'arb mediasi o'zining g'arblik o'zligini orientalistik tafakkur asosida Sharqni marginallashtirish orqali yaratdi. G'arb o'zini orientalizmda mavjud bo'lgan sharq xarakteriga ega bo'lmagan qarama qarshi vakil sifatida namoyon qiladi. Bundan tashqari, orientalizm ekzotik, erotik va g'alati orientatsiyaning kategoriyalar, jadvallar va tushunchalar bilan bir vaqtda aniqlanadigan va boshqariladigan tushunarli va maqbul ko'rinishga keltirdi. Jamil Merich ta'kidlaganidek, "G'arbning Sharq bo'yicha tadqiqot va izlanishlar olib borishi, Sharqni tavsiflashni va nazorat qilishi va shu tariqa Sharqda hukmronlik qilishini alohida diqqat bilan tahlil qilish kerak" [5]. Chunki bu o'rinda ham orientalizm to'liq ma'noda G'arb imperialistik maqsadlariga xizmat qiladi. Adabiyotlarda uchraydigan sharq obrazi va orientalistik mushohda izlari bugungi kunga kelib zaqmonaviy mass medianing elementaridan biriga aylangan.

Mass medianing elementlari bo'lgan gazeta va ensiklopediyalarda ham orientalistik motiflarni kuzatish mumkin. Yevropadagi sharqshunos Hammer tomonidan nashr etilgan birinchi jurnal "Sharq manbalari" hisoblanadi. Parijda 1820-yilda asos solingan Osiyo jamiyati "Osiyo jurnali"ni nashr etdi. 1823-yilda Londonda tashkil etilgan Qirollik Osiyo jamiyati o'zing – "Qirollik Osiyo jamiyati" jurnali nashri bilan katta bir o'quvchilar auditoriyasini birlashtirgan edi. 1842-yilda Amerika Sharqshunoslik jamiyati jamoatchilik e'tiboriga yangi bir "Amerika sharqshunoslar jamiyati" deb nomlangan jurnalini taqdim etdi. 1895-yilda Parijda Islom jurnali nashr etildi. Bu jurnalning nomi 1906-yilga kelib Islom dunyosi jurnaliga keyinroq esa Islomiy tadqiqotlar jurnaliga o'zgartirildi. 1910-yilda Germaniyada "Der Islam" jurnali chop etilgan bo'lsa 1912-yilda Rossiyada "Mir islama" jurnali chop etildi. "Gazetalarga qo'shimcha tarzda

orientalistlar tomonidan bu davrda ko‘plab ensiklopediyalar nashr etildi; “Islom ensiklopediyasi”, “Islom qisqa ensiklopediyasi”, “Din va axloq ensiklopediyasi”, “Ijtimoiy fanlar ensiklopediyasi” eng mashhur sharqshunoslik ensiklopediyalaridir” [6].

Natijalar. Adabiyotdan tortib musiqagacha, rassomchilikdan tortib arxitekturagacha shuningdek zamonaviy davrda musiqa va kinoda ham orientalistik qarashlarni topish mumkin. Bungungi kunga kelib televidenya va kino orientalizm tafakkurining izlari aniq namoyon bo‘ladigan mass medianing eng keng tarqalgan turlaridir. Chunki bu kontekstda orientalizm tafakkur asosida ishlab chiqilgan kino va seriallar keng istemolchilar jamoasiga yetib boradi. Bu tendensiyalarning barchasi Sharqni G‘arb yaratgan sharqona qarashlarni o‘zlashtirishga va o‘zini G‘arbona qarashlar asosida qayta yaratishiga olib keladi. Xususan “Muhteşem Yuz yıl” seriali o‘z-o‘zini sharqlashtirishning kinoda aks etgan aniq misoli bo‘lib asardagi butun bir tasvirlarga e’tibor berilganda aniq orientalistik ananalar, yondashuvlarni kuzatish mumkin bo‘ladi. “Bu serialda Sharq ekzotik va xayoliy makon sifatida aks ettirilgan. Ayniqsa, haram va turk hammomlari kabi makonlar hikoyada keng o‘rin egallaydi. Shuningdek, sharqliklar bilan bog‘liq fitna, hokimiyat, nafrat, qasos, yovuzlik, zolimlik va vahshiylik kabi tushunchalar mahorat bilan tasvirlanadi. Ushbu serialda aks ettirilgan qahramonlarning salbiy, zo‘ravon, jinsiy obyekt va fantastik jihatlarida ularni sharqona timsollar bilan kuchli aloqalar mavjudligini ko‘rsatadi” [7, 51-b].

Keyingi davrda kinodagi orientalizm keng tahlil qilinarkan orientalizmning tanqidiy tahlilida Gollivud mahsulotlariga alohida e’tibor qaratilib keng tadqiqotlarni olib borilgan. Tadqiqotchilar Sharq haqidagi gollivud filimlarini mavzu xususiyatlariga qarab ikki kategoriyaga bo‘ladi. “Birinchi toifadagi filimlarda faqat Sharq aks ettirilib g‘arbona xarakter egalari ko‘rinmaydi. “Bog‘dod o‘g‘risi” (1940) va “Sindbodning 7-safari” (1958) kabi filmlar shunday filmlar jumlasiga kiradi. Ikkinchi toifadagi filmlar sirasiga G‘arblik arxeolog, tarixchilar va sayyoh qahramonlar tilidan aytilgan asarlar kiradi. “Indiana Jons”, “Yo‘qotilgan kemandagi bosqinchilari” (1981), “Mumiya” (1999), “Mumiya tirilishi” (2001) kabi filmlar ham ana shunday asarlarga misol bo‘la oladi” [8, 23-24-b]. “Orientalizm tafakkuri moddiylashadigan ko‘plab san’at asarlarida bo‘lgani kabi, kinoda ham sharqshunoslik elementlari sifatida talqin qilinadigan “stereotiplar”ning soddalashtirilgan tavsiflovchi kategoriyalari mavjud. “Arabistonlik Lourens” (1962), rejissyor Devid Lin; “Tungi ekspress” (1978) rejissyori Alan Parker; Rejissyor De Mil tomonidan suratga olingan “O‘n amr” (1956) filmini bunday filmlarga misol qilib keltirish mumkin”.

Orientalizm tafakkuri asosida yaratilgan filimlarda asosan qahramonlar xarakteri va filimdagi asosiy makonlar vositasida orientalistik elementlar nomoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham kino yoki filimdan orientalistik elementlar qidirilganda hikoyaning bayon etilishi, qahramonlarining xarakteri, va keltirilgan filimdagi foydalanilgan makonlarga alohida e’tibor

qaratish lozim. Yana bir muhim masala bu irqiy, milliy va marginallikdir. Xususan, kinoda taqdim etilayotgan fantaziyalarda ezgulik va yovuzlikning taqdim etilishi juda muhim hisoblanadi. G'arb qahramonlariga qarama-qarshi keltirgan Sharq kishisi tushunilishi qiyin, qobilyatsiz qilib tasvirlangan bir paytda umumiy g'arblik qahramonlar xarakteri intelligent, qobilyatli, jismoniy baquvvat qilib bo'rtirib beriladi. Orientalistlarga ko'ra, arablar bechora, terrorchi, sust, aqlsiz va zaifdir. Bir tomondan ular qoloqlik va tanazzulni ifodalaydi. "Boshqa tomondan Yevropa kishisi demokratik, yaxshi fazilatli, kuchli xarakterni ifodalaydi. Umumiy Arab qiyofasi bilan berilgan talqinda ijobiy tipologiya deyarli kuzatilmaydi" [10, 51-56].

Orientalizmni sa'natda kuzatsa bo'ladigan yana biri bu animatsion filmlar hisoblanadi. "Animatsion filmlar bir qarashda har qanday uslubdan mafkuradan holi ko'rinishi mumkin. Biroq chuqur tahlillar asl vaziyat boshqa ekanligiga ishorat beradi" [11, 462-b]. Misol uchun tadqiqotchilar Disney animatsiyalarini ko'rgan bolalarga hamda o'smirlarga bir xil darajada orientalistik tafakkur ta'sirini o'tkazishi mumkin ekanligini takidlaydi. Shuningdek, animatsiya va multfilmlarda tasvirlangan "yovuzlik" qahramonlariga muhrlangan "hilol", "islomiy tumor", "qizil qalpoq (janissar)" va "turk mo'ylovi" kabi ramzlarga ham qahramonlarni salbiy idrok etish va tarixni buzish sifatida qarash lozim.

Xulosa va takliflar. Tarixiy ma'lumotlar o'rganilganda G'arb Sharqdagi hukmron siyosatini oriyentalizm orqali amalga oshiradi, deb ishoniladi. O'tmishdan hozirgi kungacha G'arb Sharqdan nafratlanagan. Sharq haqidagi deyarli barcha tadqiqotlar Sharqni yovuz, xunuk va vahshiy deb tasvirlaydi. Bularni G'arb diskursda qoldirmay, Sharq va Sharq xalqlariga ushbu o'zlikni singdirish va uni o'z ichida tan olishga majbur qilish muvaffaqiyatini ko'rsatdi. Ta'kidlash mumkinki, XXI asrda G'arbnings siyosiy va ommaviy axborot vositalari olamida Sharq va ayniqsa, islom diniga nisbatan noto'g'ri tasavvurlarning manbai bugungi kungacha sodir bo'lgan nafrat va marginallashuvdir. Shuni ta'kidlash mumkinki, buning tarixiy fonida salib yurishlari davriga oid tarixiy ketma-ketlik mavjud. Bu kontekstda Sharq ibtidoiy yoki vahshiy tushunchalar bilan, G'arb esa ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, texnologik va iqtisodiy jihatdan sivilizatsiyalashgan dunyoni ifodalaydi. Media manipulyatsiya qilish, yo'naltirish va ta'sir ko'rsatish qobiliyati bilan jamiyatni o'zgartiradi va yangi g'oyalar bilan ijodiy san'at va ommaviy kommunikatsiya vositasidir. Ko'rinib turibdiki, G'arb dunyosining ommaviy axborot vositalarida sharqona motivlardan foydalanishi G'arb siyosatiga to'g'ri proporsional. Muxtasar aytganda, oriyentalizm munozaralari o'tmishdagi ildizlaridan ajralmagan holda qayta ko'rib chiqilishi va tushuntirilishi, lekin bu kontekst o'z ichiga texnologik taraqqiyotlar tomonidan yaratilgan va bevosita ommaviy ongga ta'sir ko'rsatadigan media ko'lamini qamrab olishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. Yıldırım, E., & Hira, İ. (2016). Türk televizyon dizilerinde oryantalist yansımalar: Muhteşem Yüzyıl örneği. PESA Uluslararası Sosyal Araştırmalar Dergisi, 2(2), 43–53.
2. Bulut, Y. (2012b). Edward W. Said'e ve Oryantalizm'e dair. İstanbul Üniversitesi Sosyoloji Dergisi, 3(8), 113-160.
3. Erkan, H. (2009). Hollywood sinemasında oryantalizm. Kırmızı Kedi Publications. p. 1-268.
4. Uluç, G. (2009). Medya ve oryantalizm: yabancı, farklı ve garip...öteki. Anahtar Kitaplar Publisher.
5. Kula, O. B. (2018). Batı felsefesinde oryantalizm ve Türk imgesi (3rd ed.). Türkiye İş Bankası Cultural Publications.
6. Yıldız, Ş. (2002). Oryantalizm ve İslam tarihine oryantalist yaklaşımlar (Publication No. 113653) [Master dissertation, Uludag University]. Higher Education Institution National Thesis Center.
7. Yıldırım, E., & Hira, İ. (2016). Türk televizyon dizilerinde oryantalist yansımalar: Muhteşem Yüzyıl örneği. PESA Uluslararası Sosyal Araştırmalar Dergisi, 2(2), 43–53.
8. Erkan, H. (2009). Hollywood sinemasında oryantalizm. Kırmızı Kedi Publications. (2009, 23-24-bet).
9. Satır, M. E., & Özer, N. P. (2018). Oryantalist bakış açısının sinemaya yansımaları: The Physician (2013) filmi örneği. Gümüşhane Üniversitesi İletişim Fakültesi Elektronik Dergisi, 6(1), 767-768.
10. Ekinci, B. T. (2014). Argo filmi bağlamında Hollywood sinemasında söylem ve yeni oryantalizm. Atatürk İletişim Dergisi, (6), 51–66.
11. Kirel, S. (2010). Kültürel çalışmalar ve sinema. Kırmızı Kedi Publications p. 462.